

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**VETERINARIYA PROFILAKTIKASI VA DAVOLSH
FAKULTETI**

“VETERINARIYA JARROHLIGI VA AKUSHERLIK” KAFEDRASI

**60840100 - Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim
yo‘nalishi
3-bosqich 312-guruh talabalari uchun**

**«OPERATIV XIRURGIYA VA TOPOGRAFIK ANATOMIYA»
FANIDAN**

“DABBALAR VA ULARNI XIRURGIK USULDA DAVOLASH”

**Mavzusida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulot bo‘yicha
ochiq dars tarqatma materiallari**

Samarqand-2024

Tuzuvchilar:

1. Jabborov A.G‘. – “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasida assistenti.

Taqrizchilar:

1. B.A.Kuliyev -Hayvonlar anatomiyasi, gistologiyasi va patologik anatomiya kafedrasida dotsenti, v.f.n.

2. A.Rayimov -Samarqand shahar Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markazi direktori.

Dabbalar va ularni xirurgik usulda davolash mavzusidagi amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Vaqt: 80 daqiqa	Talabalar soni: 24 ta
O'quv mashg'ulot shakli	Ko'rgazmali amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Dabba va uni klassifikatsiyasi. 2. Kindik dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasi. 3. Chov-urug'don xalta dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasi.
Amaliy mashg'ulot maqsadi: Talabalarga amaliy mashg'ulot davomida dabba va uni klassifikatsiyasi, kindik dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasi, chov-urug'don xalta dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasini o'rgatish hamda talabalarda mavzu bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qildirishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar: <ol style="list-style-type: none"> 1- Dabba va uni klassifikatsiyasi to'g'risida umumiy tushuncha beradi; 2- Kindik dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasini o'rgatish; 3- Chov-urug'don xalta dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasini o'rgatish; 	O'quv faoliyat natijalari: Talabalar: <ol style="list-style-type: none"> 1- Dabba va uni klassifikatsiyasi to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'ladilar; 2- Kindik dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasini bajaradilar; 3- Chov-urug'don xalta dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasini bajaradilar;
Ta'lim usullari	Amaliy mashg'ulot aqliy hujum ,kichik guruhlarda ishlash, klaster metodi va zinama-zina usullardan foydalanib olib boriladi.
Ta'limni tashkillashtirish shakli	Jamoaviy guruhli.
Ta'lim vositalari	Doska, mel, dars ishlanmasi, tarqatma materiallar, videoproyektor, xirurgik asboblari va hayvon.
O'qitish shakli	Guruhda ishlash.
O'qitish sharoitlari	Maxsus guruhda ishlashga texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki, savol javob, tezkor so'rov, test.

Amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	ta'lim oluvchi
	ta'lim beruvchi	
1–bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Salomlashish, davomatni aniqlash va talabalarni darsga tayyorgarligini tekshirish. 1.2. Amaliy mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va vazifalari hamda uni tashkil etish rejasi bilan tanishtiradi.	Eshitadi,yozib oladi.
2 - bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Talabalarni e'tiborini jalb etish va bilim darajasini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi.(Aqliy hujum metodi 1-ilova). 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda mashg'ulotning qisqacha bayonini tushuntirib beradi (Klaster metodidan foydalangan holda 2-ilova). 2.3. Guruhni guruhlarga bo'ladi va har bir guruhga topshiriq beradi (Kichik guruhlarda ishlash metodi 3-ilova). 2.4. O'qituvchi guruhlar bajarayotgan ishlarni nazorat qilib yo'llanma beradi.	Eshitadi. Savolga javob beradi. Eshitadi. Yozib oladi. Savollar beradi. Eshitadi.Yozib oladi. Bajaradi va savollar beradi.
3 - bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1.Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qiladi qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2.Guruhlar ishini baholaydilar. 3.3.Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	O'z-o'zini o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar.

AQLIY HUJUM METODI

1. Dabba deganda nimani tushunasiz?
2. Dabba va prolapsusni farqini tushuntirib bering?
3. Dabba elementlarini ayting?
4. Kelib chiqish sabablariga ko‘ra dabbalar qanday turlarga bo‘linadi?
5. Klinik belgilariga qarab dabbalar qanday turlarga bo‘linadi?
6. Joylashishiga qarab dabbalarning qanday turlari farqlanadi?

KLASTER USULI



“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH”.



Kichik guruhlarda ishlash talabalarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkoni tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

Mavzu: DABBALAR VA ULARNI XIRURGIK USULDA DAVOLASH.

O'quv elementlari:

1. Dabba va uni klassifikatsiyasi.
2. Kindik dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasi.
3. Chov-urug'don xalta dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasi.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: Dabba, prolapsus, dabba teshigi, dabba xaltasi, kindik dabbasi, urug'don dabbasi, qursoq parda, to'g'ri bo'ladigan dabba, to'g'ri bo'lmaydigan dabba, qisilgan dabba, fiksatsiya, og'riqsizlantirish.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Rustamov H.Q., Aqbutayev Ya.A., Narziyev B.D. "Operativ xirurgiya" O'quv qo'llanma. 1997 yil.
2. И.И.Магда "Оперативная хирургия" 1990.
3. Тимофеев С.В., Филиппов Ю.И и др. «Общая хирургия животных». Учебник. Москва, "Зоомедлит", 2007 год.
4. www.ziyo.net.uz
5. <http://kulikov-av.chet.ru/ma01.htm>
6. www.vetdoktor.ru
7. www.veterinar.ru

Asosiy tushunchalar

Dars maqsadi. Talabalarga amaliy mashg'ulot davomida dabba va uni klassifikatsiyasi, kindik dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasi, chov-urug'don xalta dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasini o'rganishadi.

Jixoz va asbob uskunalari. Rangli jadvallar, mulyajlar, hayvonlar (it, quyon, mushuk), 0,5% novokain eritmasi, katta va kichik sig'imli shprislar, har xil uzunlikdagi ignalar, Operatsiya qilish uchun qo'llaniladigan jarrohlik asbob-uskunalari, bog'lov va tikuv materiallari, 3-5% yodning spirtidagi eritmasi.

Dars o'tilish uslubi. Dars jarrohlik klinikasida, veterinariya davolash maskanida, o'quv xo'jaligida, Kinologiya markazlarida olib borish tashkillashtiriladi. Dars davomida o'qituvchi talabalarga reja asosida mavzuni tushuntirib beradi. Talabalar 4-6 tadan qilib kichik guruhlarga bo'linib, mustaqil ravishda o'qituvchi nazorati ostida it, quyon yoki mushukda – kindik dabbasi, chov-urug'don dabbasi yoki qorin yumshoq devori dabbasini operatsiya qilish texnikasini birortasini bajarishadi.

Dabba (churra) – bu qorin bo‘shlig‘idagi organlarni qursoq parda bilan birgalikda qorin devoridagi anatomik va patologik teshiklar orqali terini ostiga tushishi.

Dabba uchta elementdan tashkil topgan – dabba teshigi, dabba xaltasi – qursoq parda va uni ichiga tushgan organlar (1-rasm).



1-rasm. Dabba xaltasi

Agar organlar terini ostiga qursoq pardasiz tushsa, ya’ni muskullarni yorilishida, bunday patologiya **prolapsus** deb ataladi.

Kelib chiqish sabablariga ko‘ra dabba: a) tug‘ma va b) ortirilgan bo‘ladi. Birinchisi anatomik teshik yopilmasa yoki xaddan tashqari katta bo‘lsa hosil bo‘ladi. Ikkinchisi – shikastlanish yoki operatsiyadan keyin hosil bo‘ladi.

Joylashi bo‘yicha dabbalar quyidagilarga bo‘linadi: kindik, chot, qorin yonbosh devori, chov kanali urug‘don xalta (intravaginal) diafragmal, umurtqa pog‘onasi va boshqalar.

Klinik belgilarga qarab dabba quyidagilarga bo‘linadi:

1. To‘g‘ri bo‘ladigan dabbalar – organlar bemalol qorin bo‘shlig‘iga tushib chiqib yuradi.

2. To‘g‘ri bo‘lmaydigan dabbalar – organ xalta bilan yopishganda kuzatiladi.

3. Qisilgan dabbalar – ikkiga bo‘linadi – interstisial to‘qima bilan qisilishi (xalqa), axlat bilan qisilish, bu daba xavfli bo‘lib hisoblanadi.

Kindik dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasi.

Xirurgik kasal hayvonni chalqancha holatda Operatsiya qilish stoliga yotqizib fiksatsiya qilinadi. Hayvonga umumiy og'riqsizlantirish, narkoz yoki Magda usuli bo'yicha qorin yumshoq devori nervlarini o'tkazuvchanlik yoki infiltratsiya usulida 0,5 -3% li novokain eritmasi bilan og'riqsizlantiriladi.

Operatsiya qilish usuli. Operatsiya qilish maydoni mexanik ishlov berilgach, dabba xaltasining teri qatlami duksimon yoki vergulsimon shaklda kesiladi. So'ngra kesilgan teri qavatini dabba hosil qilgan teshik chegarasigacha teri ostki to'qimalardan, fassiya qavatlaridan o'tmas usulda ajratilib, dabba xaltasining og'zigacha, ya'ni dabba darvozasigacha yo'l ochiladi.



2-rasm. Kindik dabbasi. Operatsiyadan oldin va operatsiyadan keyingi holati.

Dabba xaltasining og'zi yoki darvozasini yopish usuli, asosan uning hajmiga, dabba xaltasining katta-kichikligiga bog'liq bo'lgan holda bu ishlarni bajarishning bir qancha usullari mavjud.

Gutman usuli. Dabba, ya'ni qorinning ichki pardasi (qursoq parda), va uning ichiga tushgan massa qorin bushlig'iga dabba og'zi yoki darvozasi orqali tushirilib, dabba darvozasiga Lamber usulida chok qo'yilib berkitiladi. So'ngra dabba xaltasini o'z darvozasi orqali takroran tashqariga chiqarib, uning bo'yin qismi ichak qisqichi yordamida qisilib, ortib qolgan dabba xaltasining teri qatlami kesib olib tashlanadi. Ichak qisqichi yordamida qisilgan dabba xaltasi ostidan ip o'tkazilib xalta bo'yni tikiladi. Tikilgan chokdan tagidan 2-3 sm pastga tushib

dabba xaltani kesib, undan so'ng qisib quyilgan ichak qisqichini bo'shatib tikish davom ettiriladi.

Sapojnikov usuli. Dabba xaltasining teri qatlami kesilgach, qorsoq parda va uning ichida joylashgan bor narsalarni dabba halqasi orqali qorin bushlig'iga burash yo'li bilan tushiriladi, buralgan qism yechilmasligini oldini olish uchun ketgut yordamida bog'lam qo'yiladi. Dabba xaltasi qorin bo'shlig'iga tushirgach, dabba xaltasi atrofiga Lamber usulida chok qo'yilib, teri va teri osti qatlamiga uzlukli chok qo'yiladi.

Olivkovning birinchi usuli. Bu asosan mayda hayvonlarda qo'llaniladi. Dabba xaltasining teri qatlami kesilgach, dabba teshigining hajmi 2 sm dan oshmasligi natijasida, bu usulni bajarish qulay bo'lib hisoblanadi. Dabba xaltasi o'z o'qi atrofida aylantirib xalta ichidagi massa qorin bushlig'iga tushirilgach, uning teppasidan ip o'tkazib tugunlanadi. Ipning uchini ignadan o'tkazib dabba teshigining atrofidan aylantirib tikiladi. Ipning har ikki uchini qattiq tortish natijasida oraliqda joylashgan va buralgan dabba xaltasi o'zining chiqqan darvozasini yopilishiga ko'maklashadi.

Olivkovning ikkinchi usuli. Qachon dabba xaltasi teriga yopishganda uning yopishgan maydonini teridan ajratib dabba teshigiga yaqinlashtiradi. Dabba xaltasi teriga yopishgan qismi esa ajratilmasdan o'zicha teriga yopishgancha qoladi. Dabba xaltasini ichida joylashgan bor narsalar qorin bo'shlig'iga tushiriladi va qorin xalta dabbasini teridagi yaraning chekkasiga yaqin chizig'iga Koxning arteriya qisqichini o'tkazib qisib oladi. Keyin dabba xaltasining yuqori qismini o'zining o'qi atrofiga aylantirib uni uzun ipak ipi bilan bog'laydi yoki ipni ignadan o'tkazib tikadi. Asosan bu yerda Olivkovning birinchi usuli qo'llaniladi. Dabba teshigini chetidan ipni o'tkazib tortadi va jarrohlik tugun tashlab bog'laydi.

Olivkovning uchinchi usuli. Qachon dabbaning yo'lida joylashgan to'qima qattiq bo'lganda bu usul ishlatiladi. Peritoneal dabba xaltasini bir tekisligiga bir necha ip o'tkazib uning uchlarini dabba teshigining chetidan chiqarib tortish natijasida peritoneal xalta yig'ilib qat-qat burma bo'lib tortilish oqibatida u torayadi, natijada dabba teshigiga o'rnashib biologik vazifasini bajaradi.

Chov – urug'don xalta dabbasida operatsiya o'tkazish texnikasi.

Kesim chov kanaliga nisbattan parallel olib boriladi. Hosil bo'lgan jarohat orqali umumiy qin parda yorg'oqdan organlar bilan birga tashqariga chiqariladi. Qorin teshigi orqali organlar ichkariga siqib yuboriladi, xalta o'z o'qi atrofida bir necha marta buraladi va teshikka yaqin joyda bog'lanadi. Xalta reviziya qilingandan keyin olib tashlanadi. Qolgan qismi teshikka yuborilib choklanadi. Operatsiyani yakuniy bosqichida teriga chok qo'yiladi.



3-rasm. Urug'don dabbasi.



4-rasm. Kindik dabbasini operativ usulda davolash.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO‘YICHA TEST SAVOLLARI.

Qorin bo‘shlig‘idagi organlarni qursoq parda bilan birgalikda teri ostiga tushishiga nima deyiladi?

- A. Prolapsus.
- B. Dabba.
- D. Dabba xaltasi.
- E. Dabba teshigi.

Kelib chiqish sabablariga ko‘ra dabbalar qanday turlarga bo‘linadi?

- A. Tug‘ma va orttirilgan.
- B. To‘g‘irlanadigan dabbalar.
- D. To‘g‘irlab bo‘lmaydigan dabbalar.
- E. Qisilgan dabbalar.

Qorin bo‘shlig‘idagi organlarni qursoq pardasiz teri ostiga tushishiga nima deyiladi?

- A. Dabba.
- B. Prolapsus.
- D. Dabba xaltasi.
- E. Dabba teshigi.

Klinik belgilarga qarab dabbalar qanday turlarga bo‘linadi?

- A. Tug‘ma.
- B. Orttirilgan.
- D. Kindik dabbasi, urug‘don dabbasi, qorin yonbosh devori dabbasi.
- E. To‘g‘irlanadigan, to‘g‘irlab bo‘lmaydigan va qisilgan dabbalar.

Organlar bemalol qorin bo‘shlig‘iga tushib chiqib yuradigan dabbalar bu...?

- A. To‘g‘irlanadigan dabbalar.
- B. To‘g‘irlab bo‘lmaydigan dabbalar.
- D. Qisilgan dabbalar.
- E. Tug‘ma va orttirilgan dabbalar.

Dabba elementlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang?

- A. Kindik dabbasi, urug‘don dabbasi, qorin yonbosh devori dabbasi.
- B. To‘g‘irlanadigan, to‘g‘irlab bo‘lmaydigan va qisilgan dabbalar.
- D. Dabba teshigi, dabba xaltasi va xalta ichidagi organlar.
- E. Dabba teshigi, dabba xaltasi, to‘g‘irlab bo‘lmaydigan va qisilgan dabbalar.

Dabbalarni davolashda qaysi olimlar ishlab chiqqan usullardan foydalaniladi?

- A. Gutman, Sapojnikov va Olivkov usullari.
- B. Gutman, Sapojnikov va Myuller-Frik usullari.
- D. Sapojnikov, Pirogov va Olivkov usullari.
- E. Olivkov, Gutman va Gersen usullari.

Median laparotomiya-bu?

- A. Qorin bo‘shlig‘iga oq liniya bo‘ylab yo‘l ochish.
- B. Qorin bo‘shlig‘iga oq liniyadan 10 sm uzoqlikda yo‘l ochish.
- D. Oshqozonni kesish.
- E. Qorin bo‘shlig‘iga yo‘l ochish.

Quyidagi rasmda dabbaning qaysi turi tasvirlangan?



- A. Urug‘don dabbasi.
- B. Kindik dabbasi
- D. Qorin yonbosh devori dabbasi.
- E. Dabba teshigi, dabba xaltasi.

Topshiriq va savollar:

1. Dabba deganda nimani tushunasiz?
2. Dabba va prolapsusni farqini tushuntirib bering?
3. Dabba elementlarini ayting?
4. Kelib chiqish sabablariga ko‘ra dabbalar qanday turlarga bo‘linadi?
5. Klinik belgilariga qarab dabbalar qanday turlarga bo‘linadi?
6. Joylashishiga qarab dabbalarning qanday turlari farqlanadi?
7. Kindik dabbasida operatsiya o‘tkazish texnikasini aytib bering?
8. Chov – urug‘don xalta dabbasida operatsiya o‘tkazish texnikasini tushuntiring?
9. Dabbalrni davolashda qaysi olimlarni usullarini bilasiz, izohlab bering?
10. Dabbalar va ularni xirurgik usulda davolashni izohlang?